

IKKI UYLI (DIESIYALI) O'SIMLIKlarda GULLAR HOSIL BO'LISHI

Isoqova Durдона Baxriddin qizi

*Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya ta'lim yonalishi 3-kurs 220-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Gulli o'simliklarning kelib chiqishi haqida hozirgacha yagona bir fikr yo'q. Shu bois, gulli o'simliklar qachon va qayerda paydo bo'lgan va eng qadimiy gulli o'simliklarning dastlabki vakillari qaysi o'simliklar degan savollar paydo bo'ladi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha gulli o'simliklar bur davrida paydo bo'lgan deb qaralmoqda. Bu fikrni tasdiqlovchi bir qator dalillar mavjud. Demak gulli o'simliklar taxminan bundan 120 mln. yil oldin paydo bo'lgan. Ayrim olimlar gulli o'simliklar mezozoy erasining trias davrida xattoki, poleozoy erasining perm davrida paydo bo'lgan deb xisoblaydilar.*

Kalit so'zlar: *L.Taxtadjyan, Afrika, Antarktida, Janubiy Amerika, Avstraliya, D.J.Stebbins, ikki urug' pallalilar, bir urug' pallalilar, premitiv, X.Gallir.*

Gulli o'simliklarning kelib chiqishida ikki xil fikr mavjud.

1. Monofilitik yo'l bilan gulli o'simliklar bitta qadimgi ajdoddan kelib chiqqan deyiladi. (Akad.A.L.Taxtadjyan).
2. Polifilitik yo'l bilan esa gulli o'simliklar bitta o'simlikdan emas balki, bir nechta qadimiy turlardan kelib chiqqan.

Ingliz botanigi R.Melvilla fikrcha gulli o'simliklar devon davrida riniofitlardan kelib chiqqan. Bu jarayon urug'li paporoniklargacha davom etib, permning oxiri va triasning boshlarigacha davom etgan. Unga Gondvan xududidagi Afrika, Antarktida, Janubiy Amerika va Avstraliya materiklari kirgan. Mashxur rus botanigi akademik A.L.Taxtadjyan dastlab gulli o'simliklar Janubiy Sharkiy Osiyoda paydo bo'lgan deb qaraydi, chunki eng qadimiy oddiy tuzilishga ega bo'lgan gulli o'simliklar shu rigionda uchraydi. Amerikalik olim D.J.Stebbins fikricha dastlabki gulli o'simliklar tez o'sadigan quruqlik xududlarda o'sishga moslashgan ikki urug' pallalilarni o'z ichiga olgan. Bir urug' pallalilar esa suv xavzalarida va soy buylarida o'sgan. Gulli o'simliklar ko'pchilik olimlarning fikriga qaraganda eng sodda to'zilishiga ega bo'lgan butasimon ochiq urug'li o'simliklardan kelib chiqqan. Gulli o'simliklarning qoldiqlari bur davridagi yotkiziklardan topilgan. Lyokin Paleozoy va mezozoy erasida o'sgan ochiq urug'lilarning ayrim belgilari gulli o'simliklarnikiga o'xshash bo'lgan. Buni usha davrga xos bo'lgan qazilma holda topilgan materiallar tasdiqlamoqda.

Dastlabki gulli o'simliklarda, ya'ni hamma bir urug'pallali va premitiv (sodda) to'zilishga ega bo'lgan ikki urug'pallali o'simliklarning changchilari uxshash bo'lgan. Bundan 120 mln.yil oldin o'sgan gulli o'simliklarda chang 3 porali, ya'ni ikki urug' pallalilarga uxshash bo'lgan. Bundan taxminan 80-90 mln. yil oldin o'sgan yopiq urug'li o'simliklar Yer yuzida xukmronlik qilgan.

1875 yili nemis botanigi A.Braun primitiv belgiga ega bo'lgan o'simlikning guli gulqurg'onli, yirik va ikki jinsli bo'lgan deydi. Bunta misol qilib magnoliyalarni keltiradi. Ikki jinsli gullardan ayrim jinsli gullar paydo bo'lgan deb xisoblaydi. Bu fikrni ko'pchilik olimlar qo'llab-quvvatlaydi. Nemis botanigi X.Gallir (1912) va Amerikalik CH.Bessi (1915) Ayiqtovonnamolarni qadimiy o'simlik deb qaraydilar. Gallir va Bessi tizimi (sistemalari) asosida yirik ingliz olimi D.J.Xatchinson (1926«4936) o'z tizimi (sistemi) ni yaratadi.

Akademik A.L.Taxtadjyan ham shu fikr asosida o'z sistemasini tuzadi. Lyokin ayrim botanirlar masalan, R.Dalo'ren gulli o'simliklar qandaydir yuk bo'lib ketgan yana ham soddarak o'simliklardan kelib chiqqan, magnoliyalar esa ulardan keyin paydo bo'lgan, deb tushuntiradi. Lyokin hozirgacha gulli o'simliklarning kelib chiqishi masalasi o'zil-kesil xal qilinmagan. Shu sababdan gulli o'simliklar haqida to'zilgan tizimlar (sistema) 20 ta dan ortib ketdi.

Gulli o'simliklarning kelib chiqishi to'g'risida asosan 3 ta nazariya mavjud.

1. Pseudant (soxta) gul nazariyasi. Bu nazariyaning asoschilari R. Vettshayn va A.Karstenlarning (1900) fikricha, eng qadimiy sodda tuzilishga ega bo'lgan, o'simliklarning gullari bir jinsli, gul kurgoni oddiy yoki gul qurgonsiz bo'lgan. Ular shamol vositasida changlangan. Bunday o'simliklarga misol qilib, qizilcha (efedra) va kazuarinlarni keltirishadi.

2. Ikkinchi-strobilyar nazariya 1905 yilda yaratilgan. Ochiq urug'lilarning vakili bennettitlarning qoldiqlari topilgandan keyin bu nazariya paydo bo'lgan. Unga ko'ra bennettitlarning strobillaridan gul paydo bo'lgan degan xulosaga kelingan. Bu nazariya bo'yicha, strobillardan xosil bo'lgan gul ikki jinsli, gulqurg'onli bo'lib, xasharotar vositasida changlangan. Unga misol kiib, magnoliyalarni olish mumkin. Nemis botanigi X.Gallir (1912), ingliz olimlari, A.Arber, D.Parkinlar (1905) strobillar yoki chingul nazariyasining asoschilari xisoblanadi.

3. Tellom nazariyasining asoschisi nemis olimi V.Simmerman (1959) eng kadimiy gulli o'simliklar psilofitlarning tellomidan kelib chiqqan deydi.

1. Ikki urug'pallalilar 429 oila, 10000 turkum, 190000 to'rni o'z ichiga oladi va ular 8 ta sinf (ajdod) chaga bo'lib o'rganiladi. Masalan:

1. Magnoliyakabilar sinfchasi
2. Ayiqtovonkabilar sinfchasi
3. Chinnigulkabilar sinfchasi
4. Temirdaraxtkabilar sinfchasi
5. Dillenilkabilar sinfchasi
6. Ra'nokabilar sinfchasi
7. Yalpizkabilar sinfchasi
8. qoqitkabilar sinfchasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dotson J. Dianne (2018) Monokot va Dikot niholida qadamlar ketma-ketligi. Ilm-fan. Qayta tiklangan: sciencing.com
2. Urug'larni etishtirish (2003) Valensiya politexnika universiteti. III qism. Mavzu 17. Qayta tiklangan: euita.upv.es
3. Gonzales Ana Mariya (2016) Qon tomir o'simliklari morfologiyasi. 6-mavzu Urug'lar. Shimoliy-sharq milliy universiteti, Korrientes, Argentina. Qayta tiklangan: biologia.edu.ar
4. Megías Manuel, Molist Pilar va Pombal Manuel A. (2018) urug'i. O'simliklar va hayvonlar gistologiyasi atlas. Funktsional biologiya va sog'liqni saqlash fanlari bo'limi. Biologiya fakulteti. Vigo universiteti. 9 bet.
5. Monokotlar va dikotlar. Turli xilliklarni ko'rsatadigan jadval (2018) Urug'lik sayti. Theseedsite.co.uk saytida tiklandi
6. Dikotlarga qarshi monokotlar. Gullarni o'simliklarning ikki klassi (2018) UCPM Kaliforniya universiteti Berkli. Qayta tiklangan: ucmp.berkeley.edu